

**PORA OLISH-BERISHDA VOSITACHILIK QILISH JINOYATINI TERGOV
QILISHDA UCHRAYDIGAN TIPIK TERGOV VAZIYATLARI VA ISBOTLANISHI LOZIM
BO'LGAN HOLATLARNING AHAMIYATI**

Rajabov Bekzod Xalimovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi

Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura
tinglovchisi*

Annotatsiya: *Poraxo'rlik jinoyatlari turkumiga kirituvchi barcha turdagi jinoyatlar uchun umumiy isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar hamda vujudga keluvchi tipik tergov vaziyatlari, shuningdek, sud-tergov amaliyoti o'rganilib, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini tergov qilishda tergovchi tomonidan isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlashtirilgan. Shuningdek, bu borada ayrim xorij va milliy kriminalist olimlarning qarashlari, fikrlari tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *isbot qilish, tipik tergov vaziyatlari, versiya (tusmol).*

**ВАЖНОСТЬ ТИПИЧНЫХ СЛЕДСТВЕННЫХ СИТУАЦИЙ И
ОБСТОЯТЕЛЬСТВ, ПОДЛЕЖАЩИХ ДОКАЗАТЕЛЬСТВУ, КОТОРЫЕ
ВОЗНИКАЮТ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПОСРЕДНИЧЕСТВА ВО
ВЗЯТОЧНИЧЕСТВЕ**

Аннотация: *Изучены обстоятельства, подлежащие общему доказательству для всех видов преступлений, относящихся к категории взяточнических преступлений, а также возникающие типичные следственные ситуации, а также судебно-следственная практика и установлены обстоятельства, подлежащие доказыванию следователем при расследовании преступления посредничества во взяточничестве. Также представлен анализ взглядов, мнений некоторых зарубежных и национальных ученых-криминалистов по этому вопросу.*

Ключивые слова: *доказательство, типичные следственные ситуации, версия.*

**THE IMPORTANCE OF TYPICAL INVESTIGATIVE SITUATIONS AND
SITUATIONS THAT NEED TO BE PROVEN WHEN INVESTIGATING THE CRIME OF
MEDIATION IN BRIBERY**

Annotation: *In this article, the circumstances that are subject to general evidence for all types of crimes classified as bribery crimes have been studied, as well as typical investigative situations that arise, as well as judicial investigative practice, and the circumstances that are subject to proof by an investigator when investigating the crime*

of mediation in bribery have been identified. An analysis of the views and opinions of some foreign and national criminologists on this issue is also presented.

Key words: *proof, typical investigative situations, version.*

“Poraxoʻrlik bilan kurashish masalalari bugun nafaqat Oʻzbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham diqqat markazida boʻlgan illatdir²⁴”.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

Yurtimizda poraxoʻrlik jinoyatlarini aniqlash va jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortish bilan bir qatorda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olish davlatimizning jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, 2017-yil 03-yanvardagi OʻRQ-419-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonunining 5-moddasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari sifatida quyidagilar belgilanganligini eʼtirof etish lozim²⁵:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oʻz vaqtida aniqlash, ularga chek qoʻyish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini taʼminlash kabilardan iborat.

Shu bilan birga, ushbu qonunning “Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish” deb nomlangan 16-moddasida, davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish boʻyicha zarur chora-tadbirlar koʻrishi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirishi, huquqiy tarbiya va taʼlimni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etishni, oʻquv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yoʻli bilan zarur chora-tadbirlar koʻrishini inobatga olib, ilmiy jamoa oldida korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bogʻliq mavzularda ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish korrupsiyaga qarshi kurashish salmogʻini yanada oshirishga xizmat qilishini, xususan, korrupsiyaga oid jinoyatlar turkumiga kiruvchi pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan holda ushbu jinoyatni tergov qilishda isbotlanishi lozim boʻlgan holatlar, shuningdek, hozirgi kunda porani oldi-berdi qilishda vositachilik qilish jinoyatining turli xildagi yangi koʻrinishlari, sodir etish usullari sud-tergov amaliyotida uchrayotganligi sababli, ushbu

²⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi.

²⁵ Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 03-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-419-sonli qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>.

turdagi jinoyatlarning yangicha tipik tergov vaziyatlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Avvalo, isbot qilish va tipik tergov vaziyatlari tushunchalarining ta'rifiga to'xtalib o'tish, bu borada olimlarning fikrlari bilan ilmiy munozaraga kirishib uning mohiyatini yoritishni lozim topdik.

Professor D.Mirazovning fikricha, isbot qilish²⁶ – bu isbotlash jarayonida ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish, ishda qatnashayotgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishni ta'minlash, jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarni muhofaza qilishda ifodalanadigan jarayondir.

Bizningcha, isbot qilish umumiy tushuncha bo'lib, har qanday turdagi jinoyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni individual sodir etish usullarini, jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi elementlarini, jinoyatning kriminalistik tavsiflovchi belgilarini aniqlashga qaratilgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning harakatlari yig'indisidir deyish mumkin.

Bu borada alohida turdagi jinoyatlar bo'yicha isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlarni kriminalist-olimlar tomonidan doimiy o'rganib kelinayotganligi bejiz emas albatta. Biz ham, poraxo'rlik jinoyatlari orasidan aynan pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining isbot qilishda tergovchi tomonidan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarni yoritishga harakat qilamiz.

Bosh prokuratura mas'ul xodimi Sh.Muxamatovning fikricha, poraxo'rlik jinoyatlari bo'yicha quyidagi holatlar isbotlanishi lozim deb hisoblanadi²⁷:

- jinoyat hodisasi (pora olish-berish fakti) sodir qilinganligi;
- pora predmeti, uning qanday xususiyatlari mavjudligi;
- pora tariqasida ashyolar berilgan yoki xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, ushbu ashyo va xizmatlarning pul ko'rinishida miqdori (qiymati) qanchani tashkil qilishi;
- pora predmeti to'g'ridan-to'g'ri yoki niqoblangan tarzda berilganligi;
- pora tariqasida beriladigan vositalar manbaasi;
- pora oluvchi, pora beruvchi, jinoyatning ishtirokchilari;
- jinoyatni sodir qilish holatlari (vaqti, joyi, usuli);
- pora qaysi maqsadda (qaysi harakatlarni bajarish yoki bajarmaslik evaziga) berilganligi, pora oluvchining maqsad va motivlari;
- pora beruvchi manfaatini ko'zlab muayyan harakat bajarilganligi, ushbu harakatlar qonuniy (noqonuniy) xarakterga egaligi;
- pora olish-berish subyektlari harakatlaridan qilmishni malakalash uchun ahamiyatli boshqa belgilar mavjudligi (takroran, xavfli retsidivist yoki ilgari poraxo'rlik jinoyatlarini sodir etgan shaxs tomonidan, ko'p miqdorda, tamagirlik yo'li bilan, bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, juda ko'p miqdorda, uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab);

²⁶ Mirazov D.M. Dastlabki tergov idoralari faoliyati ustidan nazoratni takomillashtirishning nazariy, tashkiliy va protsessual jihatlari: yuridik fan doktori(DSc) ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya – T., 2016. – 73-bet.

²⁷ Poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishning xususiyatlari: O'quv qo'llanma/ Sh.R.Muxamatov – T.: "Sahhof". 2023 – 144-bet.

- pora beruvchining harakatlarida uni javobgarlikdan ozod qilishga asos bo'luvchi holatlar mavjudligi;

- pora olish-berish sodir qilinishining sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar.

Biz huquqshunos Sh.Muxamatovning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda, poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishda yuqoridagi belgilarni aniqlash orqali uni isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar sifatida aks ettirish mumkinligini e'tirof qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining "Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi" darsligidagi pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxsning harakatlarida quyidagilarini isbotlash zarurligi ko'rsatilgan²⁸:

- pora oluvchi va beruvchi shaxslar o'zaro munosabatlari;
- pora predmetidan manfaatdor bo'lganligi;
- pora oluvchi va pora beruvchi shaxslarni munosabatlaridagi roli;
- qaysi sharoit va holatlar vositachilik qilishga jalb etganligi va ushbu jinoyat tashkillotchilari.

Ushbu darslikda keltirilgan pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini tergov qilishda isbotlanishi zarur bo'lgan holatlar nisbatan chuqurroq yondashilganligini ya'ni umumiy tarzda barcha poraxo'rlik jinoyatlari uchun bir xil isbotlanishi lozim bo'lgan holatlardan qochilganini ko'rish mumkin.

Yuqorida ilgari surilgan fikrlar albatta, poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni to'liq ochib bergan deb hisoblaymiz. Ammo bizning asosiy maqsad poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishda umumiy kriminalistik jihatlaridan tashqari, xususiylikka qarab ya'ni poraxo'rlik jinoyatlarining alohida turlari bo'yicha uning kriminalistik jihatlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Bizning tadqiqot mavzuimizdan kelib chiqib, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati boshqa poraxo'rlik jinoyatlari bilan o'xshash jihatlari bo'lsada, ammo ushbu jinoyatning alohida o'ziga xos xususiyatlarini (pora olish va pora berishdan tashqari), sodir etgan shaxs, sodir etilishi usullari va shakllarini inobatga olib, ushbu jinoyatni tergov qilish samaradorligini oshirish maqsadida, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini tergov qilishda muallif tomonidan isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar yuqoridagi kriminalist olimlarning fikrlarini o'rgangan holda quyidagicha bu turdagi jinoyatni tergov qilishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar sifatida keltirildi.

Jumladan:

1. Jinoyatning obyekti. Davlat boshqaruvi tartibi yoki qaysi boshqa ijtimoiy munosabatlarga qarshi qaratilganligi;

2. Jinoyatning subyekti. Vositachining shaxsiga doir ma'lumotlar (yoshi, huquqiy holati, sudlanganligi, mansabdor shaxs ekanligi, pora oluvchi yoki beruvchi shaxslarga aloqadorligi, bir guruh shaxslar tomonidan bajarilganligi, aqli rasoligi);

²⁸ Astanov I.R., Murodov B.B., Mirzayev F.Z., Mirzaxodjayev D.A., Karimov I.I., Rajabov B.X., Nabiyeu G'.Sh./ Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish Akademiyasi, 2024. – 216-bet.

3. Jinoyatning obyektiv tomoni (harakat yoki harakatsizlik). Vositachining pora olish yoki berish jarayonida qatnashganligi, ya'ni u porani olishga, topshirishga yoki uni uzatishga yordam berganligi, qaysi mansabdor shaxsga ya'ni pora beruvchi yoki pora oluvchi shaxsning foydasi uchun harakat qilganligi, vositachining pora olish-berishda ishtiroki qanday shaklda bo'lgani (masalan, porani yetkazib berish, muzokaralar olib borish, shartlarni kelishish), qaysi vaqtda, qayerda va qanday usulda vositachilik qilinganligi, vositachi shaxsning pora olish-berishda vositachilik rolda bilib turib sodir qilganligini;

4. Jinoyatning subyektiv tomoni (aybning shakli). Vositachining qasddan harakat qilgani, ya'ni u pora olish-berish jarayonining muhim bo'g'ini ekanini bilganligi, moddiy yoki nomoddiy manfaat olish niyati borligi yoki yo'qligi;

5. Pora miqdori va shakli. Pul yoki moddiy boyliklar shaklida berilgan yoki va'da qilinganligi, pora vositachiga to'g'ridan-to'g'ri yetkazilganmi yoki boshqa vositalar orqali yetkazishda yordam berganligi (kriptovalyuta yoki bank kartalaridan foydalanishda);

6. Daliliy ahamiyatga ega bo'lgan ishga doir ma'lumotlar. Audio, video yozuvlar, yozishmalar, guvohlarning ko'rsatmalari, pora vositachisi orqali uzatilgan moddiy boyliklarning mavjudligi va ularning kelib chiqishi, tezkor tadbirlardagi kuzatish natijalari, ekspertiza xulosalari, o'z o'rnida barchasi tergov jarayonida aniqlanishi va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar hisoblanadi".

Bundan tashqari, ushbu maqolamizning ikkinchi qismi ya'ni pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini tergov qilishda vujudga keladigan tipik tergov vaziyatlariga to'xtalishdan avval, tipik tergov vaziyatlari nima degan tushunchaga oydinlik kiritish hamda xorij va milliy kriminalist olimlarning poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishda uchraydigan tipik tergov vaziyatlarini hamda sud-tergov amaliyotidan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish lozim bo'ladi.

Rus olimi M.Petrusevichning fikricha, tipik tergov vaziyatlari²⁹ – bu tergovchining tekshirilayotgan hodisa mohiyati va sabablari, aybdor shaxslar va ular aybining xususiyati, ishning boshqa holatlari to'g'risidagi taxminidir. Bu ma'lumotlar va dalillarning mumkin qadar keng umumlashtirilishi, ularning yagona izoh bilan birlashtirilishi demakdir; versiya jinoyatni to'liq ochishga, jinoyatchilarni fosh qilishga, aybsizlarni oqlashga qaratilgan. Tergov ver-siyasi – bu tekshirilayotgan hodisalarning tergovchi tasavvurida fikran yaratilgan obrazi, modeli, shakl-shamoyilidir.

Kriminalist olim G'.Abdumajidov tomonidan poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishda uchraydigan tipik tergov vaziyatlari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan³⁰:

- poraxo'rlik haqiqatdan ham jinoyat ishi qo'zg'atishga asos bo'luvchi materiallarda ko'rsatilgan sharoitlarda sodir bo'lgan;
- poraxo'rlik sodir etilgan, ammo soxta mansabdor-firibgar shaxsga berilgan;

²⁹ М.Г.Петрусеви́ч “Типичные следственные ситуации, возникающие на первоначальном этапе расследования массовых беспорядков”// URL:https://elib.institutemvd.by/bitstream/MVD_NAM/3675/1/Petrysevich%20%282%29.pdf.

³⁰ Kriminalistika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / G'.Abdumajidov va boshqalar. – T.: “Adolat”. 2003 – 107-bet.

- pul mansabdor shaxsga qonuniy ravishda berilgan (qarzni qaytarish), pora haqida ariza – vijdonan yanglishilgan;
- mansabdor shaxsga pora berilmagan, chunonchi, noqonuniy talabni bajarishdan bosh tortgani uchun unga tuhmat qilingan;
- mansabdor shaxs boshqa shaxsning manfaatlarini ko'zlab ma'lum bir xizmat harakatlarini amalga oshirgan va pora olmagan.

G'.Abdumajidovning fikrlarini qisman qo'llab-quvvatlagan holda poraxo'rlik jinoyatining tipik tergov vaziyatiga quyidagicha o'zgartirish kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan, "poraxo'rlik sodir etilgan, ammo soxta mansabdor-firibgar shaxsga berilgan" deb nomlagan qismiga "poraxo'rlik deb faraz qilingan ammo firibgarlik sodir etilgan" deb topishimiz to'g'ri hisoblanadi. Chunki, shaxs o'zini mansabdor shaxs yoki mansabdor shaxsning vositachisi sifatida tanishtirib, belgilangan vazifani bajarish uchun pul-mablag'larini olgan holatda, pullarni o'zining ehtiyoji uchun sarflab yuboradi. Amalda esa, hech qanday mansabdor shaxs emasligi hamda mansabdor shaxsning vositachisi ham bo'lmaydi. Ushbu holatda pora olish-berishda vositachi sifatida ko'ringan shaxs aslida firibgarlik jinoyatining subyekti bo'ladi.

Shu bilan birga, Sh.Muxamatovning "Poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishning xususiyatlari" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida, poraxo'rlik jinoyatlari tergovining dastlabki bosqichida quyidagi tipik tergov vaziyatlari yuzaga kelishi mumkinligi asoslab berilgan³¹:

1. Pora berilgan, bu haqda pora beruvchi yoki jinoyat sodir qilinishida ishtirok etgan boshqa shaxsnining arizasi mavjud;
2. Pora berilishi va'da qilingan, pora so'rab tamagirlik sodir qilinmoqda, lekin hali berilmagan;
3. Poraxo'rlik sodir qilinganligi haqida to'liq va ishonarli ma'lumotlarga ega bo'lmagan uchinchi shaxslardan ma'lumot kelib tushgan (pora beruvchi yoki oluvchining nizoda bo'lgan qarindoshlari, hamkasblari, tanishlarining arizalari, ommaviy axborot vositalari bergan habarlar).

Sh.Muxamatovning fikricha, poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishda uchraydigan 3 ta tipik tergov vaziyatlarini o'rganishimiz davomida faqat tor doirada ya'ni faqat pora olish va pora berish jinoyatlarini sodir etishda uchraydigan tipik tergov vaziyatlari ko'rsatilganligini, ammo poraxo'rlik jinoyatlari tarkibida pora olish-berishda vositachilik qilish kabi jinoyat ham mavjudligini, lekin, ushbu jinoyatni tergov qilishda uchraydigan tipik tergov vaziyatlariga to'la mos kelmasligi aniqlanganligini ko'rish mumkin.

Buning asosiy sabablari ishlab chiqilgan tipik tergov vaziyatlarida pora olish-berishda vositachilik qilgan shaxsning xatti-harakatlari bilan bog'liq holatlar oydinlashtirilmagan va chalkashlikka olib kelinishi mumkin. Misol uchun, pora berilgan, bu haqda pora beruvchi yoki jinoyat sodir qilinishida ishtirok etgan boshqa

³¹ Poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishning xususiyatlari: O'quv qo'llanma/ Sh.R.Muxamatov – T.: "Sahhof". 2023 – 146-bet.

shaxsnining arizasi mavjud. Ushbu holatda pora aynan kimga berilganligi yoritilmagan, unga qo'shimcha sifatida "pora oluvchi yoki vositachiga" degan yozuvni qo'shib qo'yilganda maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi deb hisoblaymiz.

Rossiya Federatsiyaning kriminalistika sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan olimlari T.A.Sedovoy, S.P.Kushnirenko, V.D.Pristanskova tomonidan poraxo'rlik bilan bog'liq ishlarni tergov qilishda quyidagi tipik tergov holatlari yuzaga kelishi ko'rsatilgan³²:

1) Porani berish fakti mavjud – porani bergan shaxs, vositachi yoki boshqa ishtirokchining ko'rsatmasi bor;

2) Pora va'da qilingan yoki taklif etilgan, lekin berilmagan – haqiqiy pul yoki qimmatbaho narsa topshirilmagan;

3) Uchinchi shaxslardan ma'lumot kelib tushgan – poraxo'r yoki pora bergan shaxsning qarindoshlari, tanishlari, hamkasblari yoki OAV orqali xabarlar kelib tushgan, biroq, bu manbalar to'g'ridan-to'g'ri isbotga ega emas;

4) Poraning berilishi huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirlar davomida aniqlangan holatlar.

Yuqorida ta'kidlangan poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishda uchraydigan tipik tergov vaziyatlariga qo'shilish mantiqan to'g'ri hisoblanadi, chunki umumiy tarzda qaralganda, sud-tegov amaliyotiga shunga o'xshash real holatlar uchrashi kuzatiladi.

Shuningdek, Toshkent davlat yuridik universitetining "Kriminalistika"ga oid darslikida dastlabki tergovni rejalashtirishda quyidagi asosiy tipik tergov vaziyatlari ko'rib chiqiladi³³:

1. Poraxo'rlik sodir etilgan – jinoyat ishi materiallarida bunday holat mavjud;

2. Pora berilmagan – ariza muallifi yolg'on ko'rsatma bergan yoki adashgan bo'lishi mumkin;

3. Mansabdor shaxsga pul yoki buyum topshirilgan, ammo pora sifatida emas, balki qarz yoki boshqa sabablarga ko'ra berilgan.

Ushbu ishlab chiqilgan tipik tergov vaziyatlariga qisman qo'shilish mumkin, lekin, poraxo'rlik jinoyatlari uchun tergov vaziyatlariga umumiy qolip sifatida qarash noto'g'ri hisoblanib, o'z navbatida tipik tergov vaziyatlarini to'liq va har tomonlama ishlab chiqilmagan degan xulosaga olib keladi.

2024-yilning 12 oyi davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sodir etilgan mansabdorlik jinoyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ko'ra, 4906 ta shaxs O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 167 – 168, 192⁹ – 192¹¹, 205 – 206, 209 – 212, 301 va boshqa jinoyatlarini sodir etishda aybli deb topilib, sudga yuborilgan. Bundan tashqari, ushbu statistik ma'lumotga binoan 2024-yil davomida Respublika miqyosida pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati 5 ta holatda sodir etilganligi bo'yicha tergov qilingan jinoyat ishlari ayblov xulosasi bilan mazmunan ko'rib chiqish uchun sudga yuborilgan bo'lib, hududlar kesimida qilinganda, Qashqadaryoda 1 ta, Namanganda 1

³² Криминалистика: учебник/ коллектив авторов; под ред. Т.А.Седовой, С.П.Кушниренко, В.Д.Пристанскова. – Москва: ЮСТИЦИЯ, 2019. – 565 с. (Бакалавриат и аспирантура).

³³ Криминалистика. Учебник. // Коллектив авторов. – Т.: ТДЮУ, 2018. – 451 с.

ta, Toshkent viloyatida 1 ta va Surxondaryoda 2 ta jinoyat ishi tergov qilinganligi ma'lum bo'ldi.

Pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining sohalar bo'yicha tahlil qilinganda, advokatlar palatasi, ijro hokimiyati, xo'jalik boshqaruv va boshqa tashkilotlarda sodir etilganligi ma'lum bo'lgan³⁴.

Shuningdek, sudning chiqargan ayrim hukmlariga nazar tashlashimiz va qisqacha mazmunini yoritib berishimiz o'z navbatida sud-tergov amaliyotida yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni ochiqlash shu bilan birga, tergovchi tomonidan pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini tergov qilishda uchraydigan tergov vaziyatlari ustida to'liq ishlamaganlik holatlarini ochiqlashga imkon beradi.

1) 2024-yilning aprel oyida Surxondaryo viloyatida joylashgan tegishli MCHJning norasmiy hisobchisi sifatida ishlagan A. ismli shaxs boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar tarkibiga kiruvchi pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini sodir etish maqsadida, yuqoridagi MCHJda o'tkazilgan kameral tekshiruv natijasini uning foydasiga ijobiy hal qilib berishi evaziga soliq boshqarmasida mansabdor shaxs sifatida ishlagan B. ismli shaxs bilan 1.500 AQSH dollari miqdoridagi pulni berish bilan bog'liq kelishuvga erishib, kelishilgan umumiy pul miqdoridan 4 mln. 970 ming so'm va 300 AQSH dollari miqdoridagi pullarni o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkdan berib, C ismli MCHJ rahbaridan 1.700 AQSH dollari miqdoridagi pullarni soliq boshqarmasi xodimiga berishini talab qilgan. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborgan C. ismli shaxsning ariza yuzasidan tezkor-qidiruv tadbirlar amalga oshirilib, A. va B. ismli shaxslar jinoyat ustida qo'lga olingan. Dastlabki tergov yakuniga ko'ra, A. ismli shaxs O'zbekiston Respublikasi JKning 212-moddasi 3-qism "a" bandi bilan hamda B. ismli soliq boshqarmasi xodimi esa ayblanib O'zbekiston Respublikasi JKning 210-moddasi 2-qism "v" bandi bilan ayb e'lon qilinib, jinoyat ishi ayblov xulosasi bilan sudga yuborilgan.

Ushbu jinoyat ishi yuzasidan e'lon qilingan sud hukmiga ko'ra, dastlabki tergov organi tomonidan shaxs pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini sodir etganlikda ayblanib sudga yuborilgan bo'lsada, ammo sud tomonidan ushbu jinoyatni sodir etganlikda ayblangan shaxsning xatti-harakatlarida pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatining tarkibi mavjud emasligi, uning xatti-harakatlari pora berish hamda firibgarlik jinoyatiga ayblov o'zgartirilgan.

Bunga asosiy sabablar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- A. ismli shaxs B. ismli shaxsga o'zining tasarrufidagi mol-mulkidan pora tariqasida pul berganligi (O'z Res JK 211-m);

- A. ismli shaxs B. ismli shaxs bilan pora tariqasida 1.500 AQSH dollari miqdoridagi pul mablag'iga kelishgan bo'lsada, C. ismli MCHJ rahbariga ushbu pora miqdorini sun'iy oshirgan holda 1.700 AQSH dollari sifatida ko'rsatib, C. ismli shaxsning ishonchiga kirib uning mol-mulkini talon taroj qilish niyatida yuqoridagi

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Elektron-jinoiy huquqiy statistika yagona axborot tizimidan 2024-yil 12 oyi bo'yicha olingan ma'lumotlar.

xatti-harakatlarni amalga oshirishga uringanligi lekin o'ziga bo'g'liq bo'lmagan holda suiqasd qilganligi (O'z Res JK 25, 168-m);

- A. ismli shaxs C. ismli MCHJ rahbarining pora berish niyati bo'lmagan bo'lsada pora berishga dalolat qilganlik fakti o'z isbotini topgan (O'zbekiston Respublikasi JK 28, 211-m).

2) 2024-yilning iyul oyida Andijon viloyatida joylashgan tegishli MCHJning xodimi sifatida ishlagan A. ismli shaxs boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar tarkibiga kiruvchi pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini sodir etish maqsadida, B. ismli mansabdor shaxsga yuqoridagi MCHJ tomonidan dori narxlarini belgilangan summadan yuqorilatib sotilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotnoma asosida to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni sun'iy tarzda kamaytirish yuzasidan 30.000 AQSH dollari miqdoridagi pullarni pora sifatida berishga kelishilgan holda, MCHJ rahbarining topshirig'iga asosan 7.500 AQSH dollari miqdoridagi pullarni B ismli shaxsga olib borib bergan. C ismli MCHJ rahbari holat yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza

bilan murojaat qilgan va xodimlar tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilgan.

Tadbir davomida C. ismli MCHJ rahbari ya'ni arizachi qolgan 22.500 AQSH dollari miqdoridagi pullarni B. ismli shaxsga berayotgan vaqtida jinoyat ustida ushlangan.

Dastlabki tergov yakuniga ko'ra, A. ismli shaxs O'zbekiston Respublikasi JKning 212-moddasi 3-qism "b" bandi bilan hamda B. ismli mansabdor shaxs esa ayblanib, O'zbekiston Respublikasi JKning 210-moddasi 3-qism "v" bandi bilan ayb e'lon qilinib, jinoyat ishi ayblov xulosasi bilan sudga yuborilgan.

Ushbu jinoyat ishi yuzasidan e'lon qilingan sud hukmiga ko'ra, dastlabki tergov organi tomonidan shaxs pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini sodir etganlikda ayblanib sudga yuborilgan, ammo sud tomonidan ushbu jinoyatni sodir etganlikda ayblangan shaxsning xatti-harakatlarida pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini tarkibi mavjud bo'lsa-da, ushbu moddaning tegishli qismi (yoki band) dan boshqasiga ayblov o'zgartirgan.

Bunda, A ismli shaxs tomonidan faqatgina 7.500 AQSH dollari miqdoridagi pullar pora tariqasida C va B ismli shaxslar o'rtasida pora olish berishda vositachilik qilish jinoyatini sodir etganlik holati o'z isbotini topgan. Qolgan 22.500 AQSH dollari miqdoridagi pullar tadbir davomida C ismli shaxs tomonidan B ismli shaxsga berilganligi o'z navbatida A ismli shaxsga nisbatan ko'p miqdorda pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini sodir etish bilan bog'liq ayblovni inkor etgan.

3) Dastlabki tergov organi tomonidan shaxs pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini sodir etganlikda gumon qilingan bo'lsada, ushbu uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etganligi, shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilganligi, chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi, jinoyatning ochilishiga faol yordam berganligi va keltirilgan zararni bartaraf qilganligi sababli unga nisbatan bo'lgan qismi JPKning 84-moddasi 5-qismi 2-bandi bilan tugatilganligini;

4) Dastlabki tergov organi tomonidan shaxsning xatti-harakatlari ko'p epizodli bo'lganligi sababli unga nisbatan pora olish-berishda vositachilik qilish va pora olish

shuningdek, firibgarlik jinoyatlarini ham sodir etganlikda ayblab jinoyat ishi sudga yuborilgan, shu bilan birga sud tomonidan dastlabki tergov organi tomonidan e'lon qilingan ayblov to'g'ri deb topilib, sudning ayblov hukmi e'lon qilinganligi holatlarini ko'rish mumkin.

Shuni ham alohida nazarda tutish lozimki, sud-tergov amaliyotida faqatgina yuqoridagi holatlar mavjud degan xulosaga kelish noto'g'ri. Shuni takidlash joizki, dastlabki tergov organi tomonidan shaxsga nisbatan e'lon qilingan ayb sudda ham o'z tasdig'ini topib o'zgartirishsiz qolgan holda to'g'ri kvalifikatsiya qilingan deb hukm e'lon qilingan holatlar yo'q emas.

Yuqoridagi kriminalist olimlarning fikrlari hamda sud-tergov amaliyotini tahliliga tayanib muallif tomonidan pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini tergov qilishda uchraydigan tipik tergov vaziyatlari quyidagicha ishlab chiqildi:

1. Pora olish-berishda vositachilik qilganlik fakti bor ya'ni porani olgan va porani egasiga yetkazgan;

2. Porani olgan, lekin, hali uni qabul qiluvchiga yetkazmagan;

3. Porani olish berishda vositachilik qilgan holda faqatgina og'zaki yoki yozma kelishuvga erishgan, porani olmagan ham bermagan ham ya'ni tugallanmagan;

4. Porani olish-berishda vositachilik qilgan holda kelishuvga erishgan va porani bir qismini bergan;

5. Pora olish-berishda vositachilik qilgan deb adashilgan aslida esa pora berishda dalolatchilik qilgan holda, pora oluvchi va beruvchi o'rtasida kelishuvga erishgan va porani bir qismidan o'zi manfaatdor bo'lgan, lekin, buni porani beruvchi ham oluvchi ham habardor bo'lmagan;

6. Pora olish-berishda vositachilik qilgan deb adashilgan aslida esa ushbu shaxs firibgar hisoblanib, pora tariqasida berilgan mulkni o'z extiyojlari uchun sarflash niyati bo'lgan;

7. Vositachi mol-mulkni pora sifatida emas, balki qarz yoki boshqa sabablarga ko'ra olgan va egasiga yetkazgan ya'ni ariza muallifi yolg'on (yanglishgan) ko'rsatma bergan;

8. Pora oluvchi bir vaqtning o'zida pora olish-berishda vositachilik ham sodir etgan;

9. Bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib pora olayotganligi vositachiga ayon bo'lgan holda sodir etilgan.

Shuni e'tiborga olish joizki pora tariqasida nafaqat mol-mulk yoki mulkga bo'lgan huquq, shuningdek, har qanday xizmat ham bo'lishi mumkin. Shu sababli yuqorida umumiy tarzda pora terminidan foydalangan holda keng ma'noda ifodalab ketilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 05-martdagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida "Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, konstitutsiya va qonunlarga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi. Barchamiz birlashib

korruptsiyaga – jamiyat tanasidagi saraton sifatida qarashimiz zarur³⁵!” degan fikrlarini qo'llab quvvatlagan holda korruptsiyaviy jinoyat turkumiga kiruvchi pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati sodir etilganda tergovchi tomonidan isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniq bilishi hamda ushbu jinoyatni tergov qilishda uchraydigan tipik tergov vaziyatlaridan habardor bo'lishi o'z navbatida ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsni aybini isbotlashga va pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatiga qarshi kurashishga qaratilgan samarali faoliyatni tashkil etishga imkon beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirazov D.M. Dastlabki tergov idoralari faoliyati ustidan nazoratni takomillashtirishning nazariy, tashkiliy va protsessual jihatlar: yuridik fan doktori(DSc) ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya – T., 2016. – 73-bet.
2. Poraxo'rlik jinoyatlarini tergov qilishning xususiyatlari: O'quv qo'llanma/ Sh.R.Muhamatov – T.: “Sahhof”. 2023. – 144-bet.
3. Astanov I.R., Murodov B.B., Mirzayev F.Z., Mirzaxodjayev D.A., Karimov I.I., Rajabov B.X., Nabiyeu G'.Sh./ Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish Akademiyasi, 2024. – 216-bet.
4. М.Г.Петрусеvич “Типичные следственные ситуации, возникающие на первоначальном этапе расследования массовых беспорядков”// URL:https://elib.institutemvd.by/bitstream/MVD_NAM/3675/1/Petrysevich%20%282%29.pdf.
5. Kriminalistika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / G'.Abdumajidov va boshqalar. – T.: “Adolat”. 2003 – 107-bet.
6. Криминалистика: учебник/ коллектив авторов; под ред, Т.А.Седовой, С.П.Кушниренко, В.Д.Приственкова. – Москва: ЮСТИЦИЯ, 2019. – 565 с. (Бакалавриат и аспирантура).
7. Криминалистика. Учебник. // Коллектив авторов. – Т.: ТДЮУ, 2018. – 451 с.
8. O'zbekiston Respublikasi Elektron-jinoiy huquqiy statistika yagona axborot tizimi tomonidan berilgan 2024-yilning 12 oy davridagi ma'lumotnomasi.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 05-martdagi Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy Kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqidan iqtibos.